

V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining ahamiyati katta va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste'mol tovarlari bilan to'ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o'sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug'urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Xizmatlar sohasida 31,1 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,3 % ni tashkil etdi. Yangi korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinlarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

**Xizmatlar sohasiga taaluqli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 2024-yil 1-oktabr holatiga



Savdo-15 374



**Boshqa turdagi
xizmatlar-9 673**



**Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar-3 388**



Tashish va saqlash-976




Sog'liqni saqlash-1 040



Axborot va aloqa-710

2024-yilning 1-oktabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2024-yil 1-oktabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar 37,2 % tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 8,2 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,4 % ni tashkil etmoqda.


Sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,5 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 1,7 % ga teng bo'ldi.

2024-yilning yanvar-sentabrda bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 39 780,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023-yilga nisbatan o'sish 112,6 foizni tashkil etdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi, yashash va ovqatlanish xizmatlari (32,2 %), savdo xizmatlari (18,5 %), transport xizmatlar (15,7 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,0 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmati (3,4 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan
xizmatlar tarkibi, % da



**Yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**

	<i>faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni</i>	<i>mlrd. so'm</i>		<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
		<i>2024-y.</i>	<i>2023-y.</i>		

Jami xizmatlar	31 161	39 780,3	31 815,6	112,6	100,0
-----------------------	---------------	-----------------	-----------------	--------------	--------------

*shu jumladan xizmat
turlari bo'yicha:*

aloqa va axborotlashtirish xizmati	710	1 340,8	1 068,8	118,6	3,4
--	-----	---------	---------	-------	-----

moliyaviy xizmatlar	209	4 005,9	3 299,0	115,9	10,1
---------------------	-----	---------	---------	-------	------

transport xizmati	976	6 228,7	4 779,1	114,3	15,7
-------------------	-----	---------	---------	-------	------

<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari	629	5 571,1	4 378,4	113,6	14,0
---	-----	---------	---------	-------	------

yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 388	12 871,7	10 244,0	109,8	32,4
--------------------------------------	-------	----------	----------	-------	------

savdo xizmatlari	15 374	7 368,7	5 996,2	115,3	18,5
------------------	--------	---------	---------	-------	------

ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	804	750,0	585,3	115,2	1,9
---	-----	-------	-------	-------	-----


davomi

	<i>faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni</i>	<i>mlrd. so'm</i>		<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
		<i>2024-y.</i>	<i>2023-y.</i>		
ta'lim sohasidagi xizmatlar	3 253	1 596,8	1 388,3	109,3	4,0
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 040	806,7	610,8	118,7	2,0
ijara xizmatlari	95	770,8	590,8	110,0	1,9
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	189	1 001,6	811,0	111,5	2,5
boshqa shaxsiy xizmatlar	402	1 256,6	1 026,5	109,6	3,2
memorchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	237	374,0	307,3	102,7	0,9
boshqa turdagi xizmatlar	4 484	1 408,1	1 108,5	108,8	3,5

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush yashash va ovqatlanish (jami xizmatlarning 32,4 foizi) va savdo (18,5 foizi) xizmatlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, sog'liqni saqlash xizmatlar (118,7 foiz), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (118,6 foiz) o'sish sur'ati yuqori bo'ldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, (2024-yil yanvar-sentabr, jamiga nisbatan % da)



Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi yashash va ovqatlanish xizmatlari 32,4 % eng yuqori ulushni tashkil etadi. yashash va ovqatlanish oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, yashash va ovqatlanish xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish xizmatlari tarkibi, % da



■ Yashash bo'yicha xizmatlar

■ Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

2024-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Transport xizmatlari

6 228,7 mlrd. so'm



Moliyaviy xizmatlar

4 005,9 mlrd. so'm

Savdo xizmatlari

7 368,7 mlrd. so'm




Boshqa xizmatlar

1 408,1 mlrd. so'm

**Aloqa va axborotlashtirish
xizmatlari**

1 340,8 mlrd. so'm




**Ta'lim sohasi
xizmatlari**

1 596,8 mlrd. so'm

Shaxsiy xizmatlar

1 256,6 mlrd. so'm



Kompyuterlarni ta'mirlash

1 001,6 mlrd. so'm bo'yicha xizmatlar

**Yashash va ovqatlanish
xizmatlari**

12 871,7 mlrd. so'm




Ko'chmas mulk bilan

750,0 mlrd. so'm bog'liq xizmatlar

2024-yilning yanvar-sentabr oylari davomida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari eng katta ulushni egallagan bo'lib, 12 871,7 mlrd. so'mni tashkil etgan, (2023-yilda 10 244,0 mlrd. so'm) nisbatan 109,8 foizni tashkil etgan, shuningdek ko'rsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlar 4 005,9 mlrd. so'm (2023-yilda 3 299,0 mlrd. so'm), savdo xizmatlari 7 368,7 mlrd. so'm (2023-yilda 5 996,2 mlrd. so'm) va aloqa va axborotlashtirish xizmati 1 340,8 mlrd. so'm (2023-yilda 1 068,8 mlrd. so'm) hissalariga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da
(2024-yil yanvar-sentabr oylari uchun)



Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (18,7 %) va Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (18,6 %) qayd etildi.

Respublikamizda kredit siyosati bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi 16,2 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 4 005,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, 2023-yilga nisbatan o'sish sur'ati esa 115,9 % ni tashkil etdi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da



**2024-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish**

	<i>Hajmi*</i> <i>mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati,</i> <i>% da</i>	<i>Aholi jon</i> <i>boshiga*</i> <i>ming so'mda</i>	<i>O'sish</i> <i>sur'ati,</i> <i>% da</i>
Samarqand viloyati	39 780,3	112,6	9 378,0	110,2
Samarqand sh.	10 808,1	117,9	18 340,5	115,6
Kattaqo'rg'on sh.	690,3	113,0	7 243,0	111,5
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	809,8	108,1	4 635,3	105,6
Bulung'ur	669,6	109,1	3 285,6	106,6
Jomboy	1 045,7	107,1	5 469,3	104,5
Ishtixon	868,2	109,0	3 119,5	106,7
Kattaqo'rg'on	871,0	107,6	2 942,7	105,5
Qo'shrabot	466,8	109,1	3 268,7	107,1
Narpay	771,2	109,0	3 367,7	107,0
Payariq	1 032,3	108,7	3 742,8	106,1
Pastdarg'om	1 680,9	110,7	4 349,1	108,3
Paxtachi	474,1	108,3	3 094,5	106,7
Samarqand	1 735,5	116,6	6 311,8	114,2
Nurobod	475,6	108,1	2 903,6	105,9
Urgut	1 673,5	109,2	2 966,1	106,6
Toyloq	1 006,4	110,6	4 512,9	108,0

*) *Yashrin iqtisodiyotni qo'shgan holda dastlabki ma'lumot*

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Samarqand shahriga (117,9 %) va Samarqand tumani (116,6 %) ga to'g'ri keldi.


Samarqand viloyati bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi Samarqand shahri (27,2 foiz), Samarqand tumani (4,4 foiz), Urgut tumani (4,2 foiz) va Pastdarg'om (4,2 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Eng past o'sish sur'atlari Jomboy tumani (104,5 %), Kattaqo'rg'on tumani (107,6 %) hamda Nurobod tumanlarida (108,1 %) kuzatildi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 9 378,0 ming so'mni tashkil qildi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 110,2 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Samarqand shahrida 18 340,5 ming so'mdan Nurobod tumanida 2 903,6 ming so'mgacha oraliqni tashkil etadi.

Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati
(2024-yil yanvar-sentabr oylari uchun)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida 18 340,5 ming so'mga teng bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 115,6 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o'sishi Samarqand (114,2 %) tumanida kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi, Nurobod (2 903,6 ming so'm), Kattaqo'rg'on (2 942,7 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

**2024-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
savdo xizmatlari hajmi**




Savdo xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida (2 467,8 mlrd. so'm), Samarqand (535,7 mlrd. so'm) va Pastdarg'om (471,1 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko'rsatkich Paxtachi (127,8 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 7 368,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,3 % ni tashkil etdi.


2024-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



2023-yilga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o'sish sur'ati Samarqand shahrida (127,7 %) va Samarqand tumanida (112,9 %) kuzatildi.

Eng kam o'sish sur'ati Jomboy tumanida (99,0 %) qayd etildi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari ulushi, % da




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o'rtasida Samarqand shahri (37,8 %) va Samarqand (8,2 %) tumani egallaydi.

Shahar va tumanlar o'rtasida eng kam ulush Paxtachi (1,2 %), Nurobod (1,9 %) va Qo'shrabot (2,0 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari hajmi 6 228,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,3 % ni tashkil etdi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha transport xizmatlarining o'sish sur'ati va hajmi



Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida (1 950,6 mlrd. so'm) va Samarqand tumanida (419,1 mlrd. so'm) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Nurobod tumanida (111,3 mlrd. so'm) qayd etildi.